



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA “AKT XIZMATLARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
Shermatov Sherzod Xotamovich RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG’LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o’g’li KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O’ZBEKISTON SHAROITIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne’matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARI	
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o’g’li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohobov O’ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o’g’li BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi O’ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO’LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA).....	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	



INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
Olokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
Karimova Iroda Abdusattarovna KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
Qurbonov Abror Abdullayevich GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
Джураева Гузаль Шавкатовна BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOHOVCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich Shukurova Nilufar Qahramonova IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
Aliyev Arslon Salom o'g'li A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
Wang Biao USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
Aliqulov Abbas Baxtiyor o'g'li	



INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LGHASHNING METODOLOGIK MODEL VA INDIKATORLAR TIZIMI

Aliqulov Abbas Baxtiyor o'g'li

Qarshi xalqaro universiteti katta o'qituvchisi -

ORCID: 0009-0003-6121-1119

E-mail: abbosalikulov1253@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoati integratsiyasi iqtisodiy samaradorligini baholash uchun AHP usuli asosida ikki guruh va olti indikatoridan iborat metodologik model taklif etilgan. Model Qashqadaryo viloyatining 16 ta hududi bo'yicha 2010 – 2024-yillar ma'lumotlari asosida aprotatsiyadan o'tkazilgan. Natijalar hududlar o'rtasida integratsiya samaradorligi darajasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatib, reytinglash va zaif tomonlarni aniqlash imkonini beradi. Taklif etilgan model mintaqaviy agro-sanoat siyosatini shakllantirishda amaliy vosita sifatida qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: agro-sanoat integratsiyasi, iqtisodiy samaradorlik, ko'p mezonli baholash, AHP usuli, kompozit indeks, hududiy tahlil.

Аннотация. В данной статье предложена методологическая модель оценки экономической эффективности интеграции сельского хозяйства и перерабатывающей промышленности на основе метода АHP, включающая две группы и шесть индикаторов. Модель апробирована на основе данных по 16 районам Кашкадарьинской области за 2010–2024 годы. Полученные результаты показали наличие существенных различий в уровне эффективности интеграции между районами, что позволяет осуществлять ранжирование территорий и выявлять их слабые стороны. Предложенная модель может быть использована в качестве практического инструмента при формировании региональной агропромышленной политики.

Ключевые слова: агропромышленная интеграция, экономическая эффективность, многокритериальная оценка, метод АHP, композитный индекс, региональный анализ.

Abstract. This article proposes a methodological model for assessing the economic efficiency of integration between agriculture and the processing industry based on the AHP method, consisting of two groups and six indicators. The model was tested using data from 16 districts of Kashkadarya region covering the period 2010–2024. The results revealed significant differences in the level of integration efficiency among districts, enabling territorial ranking and the identification of weaknesses. The proposed model can be applied as a practical tool for shaping regional agro-industrial policy.

Keywords: agro-industrial integration, economic efficiency, multi-criteria assessment, AHP method, composite index, regional analysis.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoati o'rtasidagi integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi agro-sanoat majmuasining raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida tan olinmoqda. Biroq integratsiya jarayonlarining samaradorligini o'lchash va baholash masalasi ilmiy adabiyotlarda hali yagona metodologik yechimga ega emas. Mavjud yondashuvlarning aksariyati yagona ko'rsatkich asosida baholash bilan cheklanib, integratsiyaning ko'p qirrali mohiyatini to'liq aks ettira olmaydi.

Integratsiya samaradorligini to'g'ri baholash uchun ishlab chiqarish, bozor va institutsional o'lchovlarni bir vaqtda hisobga oluvchi ko'p mezonli tizim zarur. Bunday tizimning yo'qligi, birinchidan, samaradorlikni ob'ektiv taqqoslashni qiyinlashtiradi, ikkinchidan, hududiy farqlarni aniqlash va maqsadli siyosat ishlab chiqishga to'sqinlik qiladi. Qashqadaryo viloyati misolida ko'rinadiki, bir xil agroklimatik sharoitda joylashgan tumanlar o'rtasida ham integratsiya darajasi va uning samaradorligi sezilarli darajada farq qiladi. Bu holat hududiy omillarni hisobga oluvchi metodologik ramkaga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Ushbu maqolaning maqsadi qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoati integratsiyasi iqtisodiy samaradorligini baholashning metodologik modelini ishlab chiqish va uni Qashqadaryo viloyatining 16 ta hududi bo'yicha 2010–



2024-yillar statistik ma'lumotlari asosida aprobatsiyadan o'tkazishdan iborat. Tadqiqotda AHP usuli qo'llanilib, o'sish samaradorligi va hududiy dinamika guruhlarini qamrab oluvchi olti indikatoridan iborat kompozit baholash tizimi taklif etilgan. Maqolaning ilmiy yangiligi mintaqaviy sharoitga moslashtirilgan ko'p mezonli indikatorlar tizimini birinchi marta ishlab chiqishda va uni real statistik ma'lumotlar asosida aprobatsiya qilishda namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Integratsiya samaradorligini o'lchash va baholash metodologiyasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda ko'p mezonli qaror qabul qilish usullari, kompozit indeks qurishning metodologik asoslari va agro-sanoat integratsiyasi nazariyalari kesimida keng tadqiq etilgan.

Saaty [1] tomonidan ishlab chiqilgan Analitik lerarxiya Jarayoni (AHP) usuli murakkab ko'p mezonli qaror qabul qilish muammolarini hal etishda eng keng qo'llaniladigan matematik vositalardan biri sifatida tan olingan. AHP juft taqqoslash matritsalarini asosida mezonlarga vazn belgilash imkonini beradi, qarorning izchilligini o'lchaydi va sub'ektiv ekspert baholarini ob'ektiv miqdoriy ko'rsatkichlarga aylantiradi. Ushbu xususiyatlari tufayli AHP agro-sanoat loyihalarini baholashda, yer resurslarini boshqarishda va qishloq xo'jaligi siyosatini shakllantirishda keng qo'llanilmoqda.

Cinelli va boshqalar [2] ko'p mezonli qaror qabul qilish tahlili (MCDA) asosida kompozit indekslar ishlab chiqishning metodologik asoslarini o'rganib, normalizatsiya va agregatsiya usullarining turli kombinatsiyalari asosida alternativlarni reytinglash imkonini beruvchi tizimli yondashuvni taklif etgan. Tadqiqotda normalizatsiya usulining tanlovi kompozit indeks natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan bo'lib, Min-Max normalizatsiyasi hududiy taqqoslama baholashda eng maqbul usul sifatida tavsiya etilgan.

Talukder [3] hamda Benayad va boshqalar [4] tadqiqotlari kompozit indeks qurishda normalizatsiya bosqichining hal qiluvchi ahamiyatini mustaqil ravishda isbotlagan: birinchisi 50 ta indikator asosida, ikkinchisi esa Marokash mintaqalarida qiyosiy tahlil orqali Min-Max normalizatsiyasining hududiy baholashda eng maqbul usul ekanligini tasdiqlagan.

Reardon va Barrett [5] rivojlanayotgan mamlakatlarda vertikal integratsiya mexanizmlari mahsulot sifati nazoratini yaxshilash, kichik fermerlarning bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish jihatidan muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatgan. Tadqiqotchilar integratsiya shakllarini miqdoriy baholashda ko'p mezonli yondashuvning zarurligini ta'kidlagan.

Wang va boshqalar [6] Xitoyning Lin'an hududidagi 1325 ta fermer xo'jaliklarini qamrab olgan ekonometrik tadqiqotda tashkiliy model va vertikal integratsiya darajasining fermerlar daromadiga ta'sirini baholash uchun ko'p o'lchovli metodologik yondashuvdan foydalangan. Tadqiqot integratsiya samaradorligini o'lchashda yagona ko'rsatkich emas, balki kompleks indikatorlar tizimining qo'llanilishi muhimligini ko'rsatgan.

Ahmadi va boshqalar [7] MCDA asosidagi kompozit indekslash tizimi yordamida Eronda qishloq xo'jaligi barqarorligini baholashning o'n bir bosqichli metodikasini ishlab chiqib, indikatorlarni tanlash, validatsiya va aprobatsiya jarayonlarini tizimlashtirgan. Tadqiqotda asosiy komponentlar tahlili va ekspert baholari kombinatsiyasi eng ishonchli metodologik yondashuv ekanligi aniqlangan.

Fuglie [8] xalqaro qishloq xo'jaligi unumdorligi bo'yicha milliy va hududiy darajada samaradorlikni baholash uchun ko'p o'lchovli metodologik yondashuvlar zarurligini ta'kidlab, yagona ko'rsatkich asosidagi baholashning cheklovlarini ko'rsatgan. Uning tadqiqotlari hududiy agro-sanoat samaradorligini o'lchashda institutsional, texnologik va bozor omillarini birgalikda hisobga oluvchi integrallashgan metodologiyaga ehtiyoj borligini asoslagan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan tadqiqotlar integratsiya samaradorligini baholashda ko'p mezonli yondashuv metodologik jihatdan ustunlik kasb etishini ko'rsatadi. Biroq AHP usuli asosida ishlab chiqilgan indikatorlar tizimini Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston sharoitida hududiy agro-sanoat integratsiyasini baholashga tatbiq etish ilmiy adabiyotlarda hali yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, ushbu maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirish maqsadini ko'zlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda integratsiya samaradorligini o'lchash uchun AHP usuli asosida ko'p mezonli baholash metodologiyasi qo'llanilgan. Indikatorlar tizimi o'sish samaradorligi va hududiy dinamika guruhlarini qamrab oluvchi olti indikatoridan iborat. Guruhlararo vazn koeffitsiyentlari juft taqqoslash matritsasi yordamida aniqlangan. Indikatorlarni bir xil o'lchovga keltirish uchun Min-Max normalizatsiyasi, natijalarni birlashtirish uchun esa vazn koeffitsiyentlari asosidagi agregatsiya usuli qo'llanilgan. Yakuniy bosqichda har bir tuman uchun kompozit indeks hisoblanib, tumanlar reytingga qo'yilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR



Ushbu bo'limda metodologik model to'rt ketma-ket bosqichda amalga oshirilgan: viloyat darajasidagi umumiy agrar holat tavsifi, tuman darajasidagi ma'lumotlar asosida indikatorlar tizimini shakllantirish, AHP usuli va Min-Max normalizatsiyasi yordamida kompozit indeks hisoblash hamda natijalarni talqin qilish.

Indikatorlar tizimini to'g'ri shakllantirish va natijalarni kontekstda talqin qilish uchun avval viloyat darajasidagi umumiy ko'rsatkichlarni ko'rib chiqish zarur. Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning xo'jalik turlari bo'yicha tarkibi 2010–2024-yillar davomida sezilarli o'zgarishlarga uchragan. Tahlilni ixcham ko'rsatish maqsadida tanlangan yillar (har to'rt yilda bir) bo'yicha ko'rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibi (% , tanlangan yillar)

Yil	Fermer x-liklari	Dehqon x-liklari	Tashkilotlar	O'sish sur'ati (%)
2010	36,3	62,5	1,2	106,9
2014	28,5	70,2	1,3	106,0
2018	24,7	71,1	4,2	96,5
2022	24,3	70,0	5,7	103,7
2024	27,0	68,1	4,9	104,1

Manba: Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2010–2024-yillar mobaynida fermer xo'jaliklarining ulushi 36,3 foizdan 27,0 foizga kamaygan, tashkilotlar ulushi esa 1,2 foizdan 4,9 foizga - ya'ni 4 barobarga oshgan. Bu tendensiya agro-sanoat integratsiyasining institutsional shakllanishi kuchayib borayotganiga ishora qiladi. Dehqon va tomorqa xo'jaliklari 62-71 foiz oralig'ida dominantlikni saqlagan. Viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotining jami hajmi 2010-yildagi 2 753,7 mlrd. so'mdan 2024-yilda 49 950 mlrd. so'mga - 18 barobarga oshgan. Biroq viloyat darajasidagi bu umumiy ko'rsatkichlar tumanlar o'rtasidagi farqlarni yashiradi. Shuning uchun tuman darajasidagi chuqurroq tahlil zarur.

Tuman darajasida fermer, dehqon va tashkilotlar ulushi bo'yicha alohida statistika mavjud emasligi sababli, indikatorlar tizimi mavjud tuman statistikasi asosida qurilgan. Buning uchun Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasining ikkita manba jadvali ishlatilgan: tumanlar bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi (mlrd. so'm, 2010-2024) va tumanlar bo'yicha o'sish sur'ati (% , 2010-2024). Ushbu ikki manba asosida har bir hudud uchun oltita indikator hisoblangan va ular 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlari bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotining asosiy ko'rsatkichlari

Hudud	Mahsulot hajmi, mlrd. so'm (2024)	O'sish sur'ati, % (2024)	O'rtacha o'sish sur'ati, % (2010–2024)	O'sish barqarorligi (std. og'ish)	Kumulyativ o'sish, %
Qarshi sh.	340,4	101,6	104,7	16,4	1 533
Shahrisabz sh.	387,8	100,3	114,1	30,3	1 062
G'uzor	3 247,8	104,0	103,7	5,0	1 755
Dehqonobod	2 135,0	101,3	104,1	3,7	1 950
Qamashi	4 572,3	102,3	103,7	4,6	1 870
Qarshi (t.)	3 834,8	102,8	104,8	5,3	1 794
Koson	5 108,1	106,6	104,0	4,3	1 858
Kitob	4 102,3	103,3	104,9	3,5	1 620
Mirishkor	3 510,1	109,0	103,9	2,9	1 841
Muborak	2 505,9	105,7	104,8	2,8	2 153
Nishon	3 451,4	102,7	104,1	5,6	1 985
Kasbi	4 255,8	102,0	104,4	4,5	1 969
Ko'kdala	2 755,0	108,2	108,4	2,3	163*
Chiroqchi	3 340,3	104,4	105,2	5,5	1 120
Shahrisabz (t.)	2 957,0	104,2	103,8	6,5	1 439
Yakkabog'	3 446,0	102,7	103,1	5,1	1 381

*Ko'kdala tumani 2022-yilda tashkil etilganligi sababli kumulyativ o'sish faqat 2022–2024-yillarni qamrab oladi.

Manba: Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

2-jadval asosida oltita indikator aniqlangan bo'lib, ular ikkita guruhga ajratilgan va 3-jadvalda keltirilgan. Birinchi guruh - **o'sish samaradorligi** - o'rtacha yillik o'sish sur'ati (I_1), eng so'nggi yilning o'sish natijasi (I_2) va o'sish barqarorligi (I_3) indikatorlarini o'z ichiga oladi. Ikkinchi guruh - **hududiy dinamika** – 2024-yil mutlaq mahsulot hajmi (I_4), hududning viloyat jami mahsulotidagi ulushi (I_5) va bazis yildan hisoblangan kumulyativ o'sish (I_6) ko'rsatkichlaridan iborat (3-jadval).

3-jadval. Integratsiya samaradorligi indikatorlari tizimi

Guruh	Indikator nomi	Belgi	O'lchov birligi	Guruh vazni	Indikator vazni
O'sish samaradorligi	O'rtacha yillik o'sish sur'ati (2010–2024)	I_1	%	0,45	0,15
	2024 yil o'sish sur'ati	I_2	%		0,15
	O'sish barqarorligi (teskari std. og'ish)	I_3	std. og'ish		0,15
Hududiy dinamika	2024-yil mahsulot hajmi	I_4	mlrd. so'm	0,55	0,183
	Viloyat mahsulotidagi ulush (2024)	I_5	%		0,183
	Kumulyativ o'sish (bazis yildan)	I_6	%		0,184

Manba: muallif ishlanmasi.

Guruhlararo vazn koeffitsiyentlarini aniqlash uchun Saaty [1] tomonidan ishlab chiqilgan Analitik ierarxiya jarayoni (AHP) usuli qo'llanilgan. AHP usulida ikkita guruh 1-9 ballik shkala bo'yicha juft taqqoslash matritsasi orqali solishtirilib, har birining nisbiy ahamiyati ekspert bahosi sifatida belgilangan. Ushbu tadqiqotda hududiy dinamika guruhi o'sish samaradorligi guruhiga nisbatan biroz muhimroq (3 ball) deb baholangan, chunki mahsulot hajmi va viloyat ichidagi ulush hududiy integratsiya siyosatini shakllantirishda bevosita mezon bo'lib xizmat qiladi. Juft taqqoslash matritsasi asosida guruh vaznlari hisoblangan: o'sish samaradorligi guruhi - 0,45, hududiy dinamika guruhi - 0,55. Baholash sifatini tekshirish uchun izchillik nisbati hisoblab chiqilgan bo'lib, CR = 0,00 < 0,10 sharti bajarilganligi baholash to'liq izchil ekanligini tasdiqlaydi. Guruh ichidagi uchta indikatorning har biriga teng vaznlar berilgan, ya'ni har bir indikator o'z guruh vaznining 1/3 qismini tashkil etadi.

Indikatorlar turli o'lchov birliklarida ifodalanganligi sababli ularni [0; 1] oraliqqa keltirish uchun Min-Max normalizatsiyasi qo'llanilgan:

Ijobiy indikatorlar uchun (I_1, I_2, I_4, I_5, I_6):

Teskari indikator uchun (I_3 - barqarorlik, std. og'ish kichik bo'lsa yaxshi):

bu yerda: - j-hududning i-indikator bo'yicha asl qiymati; va -barcha 16 hudud orasidagi minimal va maksimal qiymatlar. Normalizatsiyadan so'ng har bir hudud uchun kompozit indeks quyidagi formula bo'yicha hisoblangan:

bu yerda - i-indikatorning vazn koeffitsiyenti, - normalizatsiya qilingan qiymat. Masalan, Koson tumani uchun: CI = 0.7837

Barcha 16 ta hudud uchun hisob-kitob natijalari 4-jadvalda keltirilgan (4-jadval).

4-jadval. Normalizatsiya natijalari va integratsiya samaradorligi indeksi

Hudud	N(I_1)	N(I_2)	N(I_3)	N(I_4)	N(I_5)	N(I_6)	CI	O'rin	Daraja
Koson	0,085	0,724	0,930	1,000	1,000	0,852	0,7837	1	Yuqori
Mirishkor	0,072	1,000	0,980	0,665	0,665	0,843	0,7063	2	Yuqori
Qamashi	0,058	0,230	0,920	0,888	0,888	0,858	0,6638	3	Yuqori
Kasbi	0,121	0,195	0,920	0,821	0,821	0,908	0,6532	4	Yuqori
Kitob	0,162	0,345	0,956	0,789	0,789	0,732	0,6429	5	Yuqori
Qarshi (t.)	0,156	0,287	0,894	0,733	0,733	0,820	0,6197	6	Yuqori
Muborak	0,160	0,621	0,984	0,454	0,454	1,000	0,6149	7	Yuqori
Nishon	0,095	0,276	0,884	0,653	0,653	0,916	0,5955	8	O'rta
G'uzor	0,058	0,425	0,905	0,610	0,610	0,800	0,5787	9	O'rta
Chiroqchi	0,191	0,471	0,887	0,629	0,629	0,481	0,5511	10	O'rta




Ko'kdala	0,482	0,908	1,000	0,506	0,506	0,000	0,5438	11	O'rta
Yakkabog'	0,000	0,276	0,901	0,651	0,651	0,612	0,5276	12	O'rta
Shahrisabz (t.)	0,065	0,448	0,851	0,549	0,549	0,641	0,5235	13	O'rta
Dehqonobod	0,096	0,115	0,951	0,376	0,376	0,898	0,4772	14	O'rta
Qarshi sh.	0,146	0,149	0,497	0,000	0,000	0,689	0,2456	15	Past
Shahrisabz sh.	1,000	0,000	0,000	0,010	0,010	0,452	0,2368	16	Past

Manba: muallif hisob-kitoblari asosida.

Hisoblangan CI qiymati asosida barcha hududlar uchta guruhga ajratilgan: $CI \geq 0,60$ - yuqori daraja, $0,40 \leq CI < 0,60$ - o'rta daraja, $CI < 0,40$ - past daraja. Natijalar 1-grafikda tasvirlangan (1-rasm).

1-grafik. Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlarining integratsiya samaradorligi kompozit indeksi reytingi (2024)



1-rasm. Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlarining integratsiya samaradorligi kompozit indeksi reytingi


Grafik tahlili shuni ko'rsatadiki, **yuqori daraja** ($CI \geq 0,60$) guruhiga 7 ta hudud kiradi. Birinchi o'rinni Koson tumani egallagan ($CI = 0,7837$) - bu tuman mahsulot hajmi (5 108,1 mlrd. so'm) va viloyat ulushi (10,23%) bo'yicha barcha hududlar orasida yetakchilik qiladi, shu bilan birga barqarorlik va kumulyativ o'sish ko'rsatkichlari ham yuqori. Mirishkor tumani ikkinchi o'rinda ($CI = 0,7063$) - 2024 yildagi o'sish sur'ati 109,0% bilan barcha hududlar orasida eng yuqori natijani ko'rsatgan va barqarorlik indikatorida ham yetakchilik qilgan ($N(I_3) = 0,980$). Muborak tumani kumulyativ o'sish indikatorini bo'yicha ($N(I_6) = 1,000$) birinchi o'rinda - 2010-yildan 2024-yilgacha 2 153 foizlik kumulyativ o'sishni qayd etgan.

O'rta daraja ($0,40 \leq CI < 0,60$) guruhiga 7 ta hudud kiradi: Nishon (0,5955), G'uzor (0,5787), Chiroqchi (0,5511), Ko'kdala (0,5438), Yakkabog' (0,5276), Shahrisabz tumani (0,5235) va Dehqonobod (0,4772). Ko'kdala tumani alohida e'tiborga loyiq: 2022 yilda tashkil etilganligi sababli kumulyativ o'sish indikatorini nolga teng ($N(I_6) = 0,000$), biroq barqarorlik ($N(I_3) = 1,000$) va 2024 yil o'sish sur'ati ($N(I_2) = 0,908$) bo'yicha barcha hududlar orasida eng yuqori natijalarni ko'rsatgan - bu tumanning yaqin kelajakda yuqori guruhga o'tish salohiyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Past daraja ($CI < 0,40$) guruhiga Qarshi shahri (0,2456) va Shahrisabz shahri (0,2368) kiradi. Shaharlar qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi (Qarshi sh. - 340,4 mlrd. so'm, Shahrisabz sh. - 387,8 mlrd. so'm) va viloyat ulushi (mos ravishda 0,68% va 0,78%) bo'yicha tumanlardan sezilarli darajada orqada, chunki ular asosan sanoat va xizmat ko'rsatish sektoriga ixtisoslashgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 4-jadvalda Shahrisabz shahri I_1 indikatorini bo'yicha normalizatsiya qiymati 1,000 ga teng chiqqan (ya'ni o'rtacha o'sish sur'ati bo'yicha birinchi o'rin). Buning sababi texnik xususiyatda: shahar 2016-yilda tashkil etilgan va 2017-yilda birinchi to'liq yil sifatida 203,9% o'sish sur'atini qayd etgan - bu sun'iy ravishda o'rtacha qiymatni oshirib yuborgan. Shunga qaramay, shahar mahsulot hajmi va viloyat ulushi bo'yicha ($N(I_4) = 0,010$, $N(I_5) = 0,010$) deyarli nolga teng bo'lganligi sababli yakuniy CI ko'rsatkichi past guruhda qolgan.

Hududlar o'rtasidagi sifat farqlarini ko'rsatish uchun yuqori guruh (Koson, Mirishkor, Qamashi) va past daraja (Qarshi sh., Shahrisabz sh.) hududlarining o'rtacha profillari 2-rasmda radar diagrammasi ko'rinishida tasvirlangan.

Radar diagrammasi yuqori guruh hududlarining barcha oltita indikator bo'yicha past guruhdan ustunlik qilishini ko'rsatadi. Eng katta farq mahsulot hajmi ($N(I_4)$) va viloyat ulushi ($N(I_5)$) indikatorlari bo'yicha kuzatilmoqda - bu ikki indikator birgalikda hududning iqtisodiy og'irligini ifodalaydi. Barqarorlik ($N(I_3)$) indikator bo'yicha guruhlar o'rtasidagi tafovut nisbatan kichikroq bo'lib, past guruh hududlarida ham o'sish barqarorligining ma'lum darajada saqlanganligini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm. Yuqori va past guruh shahar/tumanlarning indikatorlar bo'yicha profili

Viloyat bo'yicha o'rtacha kompozit indeks 0,5603 ni tashkil etib, eng yuqori (Koson, 0,7837) va eng past (Shahrisabz sh., 0,2368) natijalar o'rtasidagi farq 0,547 punktni tashkil etadi. Bu hududiy nomutanosibliklarning sezilarli darajada katta ekanligini ko'rsatib, integratsiya salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun maqsadli hududiy siyosat chora-tadbirlari zarurligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar

Taklif etilgan metodologik model hududlarni obyektiv reytinglash va zaif tomonlarni aniqlash imkonini beruvchi amaliy vosita sifatida o'zini tasdiqladi. Koson (CI = 0,7837), Mirishkor (CI = 0,7063) va Qamashi (CI = 0,6638) tumanlari yuqori samaradorlik guruhini tashkil etib, mahsulot hajmi, o'sish barqarorligi va kumulyativ dinamika bo'yicha bir vaqtda ustunlik qildi. Qarshi va Shahrisabz shaharlari agrar ixtisoslashuvi pastligi sababli past guruhda (CI < 0,40) qoldi. Ko'kdala tumani esa tashkil etilganiga qisqa vaqt o'tganiga qaramay, yuqori o'sish sur'ati va barqarorlik ko'rsatkichlari bilan istiqbolli hudud sifatida ajralib turdi.

Tadqiqot natijalariga asosan quyidagi takliflar ishlab chiqildi. O'rta daraja guruhidagi tumanlarda qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish va fermer xo'jaliklari bilan sanoat korxonalarini o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarni mustahkamlash maqsadga muvofiq. Ko'kdala tumanida investitsion rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish yuqori samaradorlikka tezroq erishish imkonini beradi. Taklif etilgan model viloyat miqyosida yillik monitoring tizimiga integratsiya qilinishi va mintaqaviy agro-sanoat siyosatini shakllantirishda doimiy amaliy vosita sifatida qo'llanilishi tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Saaty, T. L. (1990). How to make a decision: The analytic hierarchy process. *European Journal of Operational Research*, 48(1), 9–26.
2. Cinelli, M., et al. (2020). MCDA Index Tool: An interactive software to develop indices and rankings. *Environment Systems and Decisions*, 40(1), 3–24.
3. Talukder, B., Hipel, K. W., & vanLoon, G. W. (2017). Developing composite indicators for agricultural sustainability assessment. *Resources*, 6(4), 66.
4. Benayad, N., Baguare, A., & Abdouh, M. (2024). Developing a composite indicator for agricultural



sustainability assessment in the Fes-Meknes region. *Journal of the Knowledge Economy*, 15(4), 15723–15744.

5. Reardon, T., & Barrett, C. B. (2000). Agroindustrialization, globalization, and international development. *Agricultural Economics*, 23(3), 195–205.

6. Wang, Y., et al. (2021). Organization model, vertical integration, and farmers' income growth. *PLOS ONE*, 16(6), e0252482.

7. Ahmadi, H., et al. (2025). Formulating indicator selection and composite index validation for agricultural sustainability assessment. *ScienceDirect*, in press.

8. Fuglie, K. (2018). Productivity growth and technology capital in the global agricultural economy. USDA Economic Research Service.

9. www.qashstat.uz Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
